

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
Raisining birinchi o‘rinbosari M.M.Mirzayevning 2022-yil avgust bajarilgan
ishlari

Byudjet daromadlari ijrosini ta‘minlash
va qo‘shimcha manbalarni jalb etish

2022-yilning avgust uchun belgilangan **12,0 trln.so‘m** prognoz ko‘rsatkichi **13,0 trln.so‘mga** (108,1%) bajarilib, byudjetga **980,8 mlrd.so‘m** qo‘shimcha mablag‘lar jalb etildi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha **2022-yil avgust** oyi uchun **2,5 trln.so‘m** belgilangan prognoz **2,7 trln.so‘mga** yoki 108 foizga bajarildi.

Strategik rejalashtirish bo‘yicha

Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 28 apreldagi 249–son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi mutaxassislardan iborat tuzilgan holda, mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi muntazam ravishda yangilanib borildi.

Soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo‘yicha

2022-yilning avgust oyida jami 54 ta 30,6 mln. so‘mlik soliq nizosiga oid shikoyatlar kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasini belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi ta‘minlangan.

Xususan, shikoyatlar soliq to‘lovchi vakillari bilan hamkorlikda ko‘rib chiqilib, 11 tasi 19,0 mln. so‘mlik murojaatda soliq to‘lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, 43 ta 11,6 mln.so‘mlik murojaat bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o‘z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi.